

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**XUJAMKULOVA NAFISA RUZIKULOVNA**

**UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA XALQARO DASTURLAR  
ASOSIDA O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISH METODIKASINI  
TAKOMILLASHTIRISH (PIRLS, EGRA XALQARO DASTURLARI  
ASOSIDA)**

**13.00.02 - Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ona tili)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Oglavlenie avtoreferata dissertatsii doktora filosofii (PhD) po  
pedagogicheskim naukam**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

**Xujamkulova Nafisa Ruzikulovna**

Umumta’lim maktablarida xalqaro dasturlar asosida o‘qish savodxonligini oshirish metodikasini takomillashtirish (PIRLS, EGRA xalqaro dasturlari asosida)..... 3

**Хужамкулова Нафиса Рузикуловна**

Совершенствование методики повышения читательской грамотности в общеобразовательных школах на основе международных программ (на базе международных программ PIRLS, EGRA)..... 27

**Khujamkulova Nafisa Ruzikulovna**

Improving the methodology of improving reading literacy in general education schools on the basis of international programs (on the basis of PIRLS, EGRA international programs) ..... 53

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Spisok opublikovannykh rabot  
List of published works ..... 58

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**XUJAMKULOVA NAFISA RUZIKULOVNA**

**UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA XALQARO DASTURLAR  
ASOSIDA O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISH METODIKASINI  
TAKOMILLASHTIRISH (PIRLS, EGRA XALQARO DASTURLARI  
ASOSIDA)**

**13.00.02 - Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ona tili)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi fan, ta’lim va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Ped6648 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek,rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.cspu.uz.) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Vafoyeva Muxayyo Yuldoshevna**  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:** **Xodjiniyozov Sardor Umarovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Kiyamov Nishon Sadikovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** **Namangan davlat universiteti.**

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil „\_\_“ \_\_\_\_\_kuni soat \_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel.: (+998) 70-712-27-55; faks: (+998) 70-712-45-41; e-mail: chdpu\_kengash@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel.: (99870) 712-27-55.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil „\_\_“ \_\_\_\_\_kuni tarqatildi.  
(2024 yil „\_\_“ \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_raqamli reestr bayonnomasi).

**U.N.Xodjamkulov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, p.f.d, dotsent

**F.T.Rajabov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash kotibi, p.f.d, dotsent

**V.B.Fayziyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi Ilmiy seminar  
raisi, b.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon rivojlangan mamlakatlari ta'lim tizimida o'quvchilarga xalqaro baholash tadqiqotlari talabi asosida zamonaviy ta'lim berishga bo'lgan ehtiyoj tobora ortmoqda. Bu borada o'quvchilarning o'qish savodxonligi (matnni tushunish, foydalanish, mulohaza yuritish hamda munosabat bildirish) bo'yicha ko'nikmalarini mustahkamlash, matn bilan ishlash malakasini oshirish kabi masalalar Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (International Association for the Evaluation of Educational Achievement, IEA) ning butun dunyo bo'ylab ta'limni baholash, o'qish va tushunish sifatini yaxshilash bo'yicha ish olib boruvchi PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) va EGRA (Early Grade Reading Assessment) xalqaro dasturlarida keng ko'lamda tadqiq etilmoqda. Mazkur muammoni umumta'lim maktablarida boshlang'ich ta'lim misolida o'rganish, boshlang'ich ta'limda fanlar integratsiyasini ta'minlash va o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar, xususan, ularni zamonaviy metodikalar vositasida tadqiq qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoning bir qator rivojlangan mamlakatlarida innovatsion ta'lim muhitini yaratish, integratsion munosabatlarni rivojlantirish, ta'lim amaliyotiga PIRLS, EGRA (Early Grade Reading Assessment), EGMA (Early Grade Math Assessment), TIMSS (Trends in Mathematics and Science Study) kabi jahon ta'lim standartlarini joriy qilish bo'yicha bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar sifatida e'tirof etilayotgan shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy, evristik, akmeologik texnologiyalarni ta'lim amaliyotiga samarali tatbiq qilish, o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, matn bilan ishlash, undan foydalanish va munosabat bildirish ko'nikmalarini rivojlantirishga boshlang'ich ta'lim imkoniyatlarini yo'naltirish, xalqaro baholash dasturlari talablari asosida ta'lim mazmunini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida ularning o'qish savodxonligini rivojlantirish orqali PIRLS va EGRA xalqaro dasturlarida nazarda tutilgan o'qish savodxonligi bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirish borasidagi amaliy ahamiyatga molik ilmiy tadqiqotlarni taqozo qiladi.

Respublikamiz ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qaror toptirish hamda "2030-yilga kelib PISA xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish"<sup>1</sup> xalq ta'limi tizimi oldidagi strategik vazifalardan biri sifatida belgilangan. Umumiy o'rta ta'limda boshlang'ich ta'limga zamonaviy pedagogik yondashuvlarni tatbiq etish orqali o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirish uzluksiz ta'limdagi muhim jarayonlardan biri hisoblanadi. O'quvchilarning ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, kreativ va mantiqiy fikrlashga o'rgatish, zamonaviy ijtimoiy ko'nikmalarini (mustaqil ishlash qobiliyati, loyihalash, o'zini-o'zi tahlil qilish, iqtidorini namoyon qilish, olgan

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5712-con farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi, 29.04.2019 y.

bilimlarini hayotda qo'llay olishi) rivojlantirish, xususan, ularning o'qish savodxonligini rivojlantirish orqali hayotga tayyorlashga yo'naltirilgan innovatsion ta'lim muhitini yaratish muammoning ilmiy jamoatchilik tomonidan chuqur tadqiq qilinishini taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi PF-5538-son "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari; 2019-yil 16-yanvardagi PQ-4119-son "Ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 14-apreldagi 213-son "Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyat bilan bog'liq boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mamlakatimizda o'quvchilarning o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirish muammosi pedagogikaning asosiy tadqiqot ob'ektlaridan biri sifatida mahalliy olimlar tomonidan o'rganib kelinmoqda. Xususan, o'quvchilarda bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari B.R.Adizov, R.A.Mavlonova, S.Matchonov, R.Safarova, U.Mahkamov, M.G.Davletshin, R.Ibragimov, X.P.Nazarova, T.N.Najmitdinova; mustaqil ta'limning xususiyatlari, o'quvchilarning mustaqil ta'limini tashkil etishning pedagogik asoslari Z.Nishonova, E.I.Zakinov, J.Tolipova, O.K.Tolipov, N.Xalilov, Sh.Yunusova, O.A.Qo'ysinov, S.R.Abdalova; xalqaro baholash tadqiqotlari vositasida o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari M.Qurbonova, A.Matkarimov; maktab o'quvchilarida ijodiy faoliyat ko'nikmalari va malakalarini shakllantirish, mustaqil fikrlash va bilish faolligini oshirishning nazariy va amaliy asoslari U.Inoyatov, B.Xodjayev, M.Vahobov, O.Qo'ysinov, Y.Asadov, N.Turdiyev, D.M.Mamatqulovlarning ilmiy tadqiqotlarida yoritilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida PISA baholash dasturining o'tkazilishi, maqsadi va vazifalari bo'yicha T.E.Xavenson, Yu.D.Kersha, G.S.Kovaleva, E.A.Krasnovskiy, L.P.Krasnokutskaya, K.A.Krasnyanskaya; ta'limni tashkil etishning metodologik asoslari va tamoyillari Ye.M.Boxorskiy, I.V.Komarov; boshlang'ich ta'limni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida takomillashtirish V.A.Bolotov, A.N.Daxin, I.D.Frumin,

T.I.Shamov, I.S.Yakimanskiy, A.V.Xutorskoy, V.I.Baydenko, E.F.Zeer, A.V.Tixonenko, Yu.Tatur; o'quvchilarning o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirish, xalqaro baholash dasturlari talablarini ta'lim amaliyotiga tatbiq etish mexanizmlari S.I.Konstantinov, Yu.V.Pesterev, Ye.P.Pozdnyakov, Ye.V.Makarenkolar tomonidan tadqiq etilgan.

Xorijlik olimlardan J.Valjarvi, M.Uljens, S.T.Hopman, G.Brinek, M.Retzl, J.Sachs, P.Sahlberg, H.Niemi, A.Toom, A.Kallioniemi, Jakku-Sixvonen, G.Tsukermanlarning ilmiy izlanishlarida ta'lim sifatiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar, ta'lim jarayonini PIRLS xalqaro baholash dasturi talablari asosida tashkil qilish masalalari o'z ifodasini topgan.

Boshlang'ich ta'lim metodikasini zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan, kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan va akmeologik yondashuvlar asosida takomillashtirish, xalqaro baholash dastur talablari asosida o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirish, ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yilayotgan PIRLS xalqaro baholash dasturi talablari va o'quv jarayonida integratsiyani ta'minlash hamda o'zlashtirilgan bilimlarning hayotiy ahamiyatini oshirish zarurati mazkur dissertatsiyaning mavzusini belgilab berdi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining "Zamonaviy sharoitda ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishning nazariyasi va amaliyoti" (2019-2022 yy.) mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** EGRA va PIRLS xalqaro tadqiqotlari asosida umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

PIRLS, EGRA xalqaro baholash dasturlari asosida o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirishning nazariy aspektlarini aniqlashtirish;

o'quvchilarning matn tahlili asosida o'qish savodxonligini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish;

xalqaro baholash dasturlari asosida o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirish metodikasini takomillashtirishning universal modelini takomillashtirish;

PIRLS va EGRA xalqaro baholash tadqiqotlari talablariga muvofiq topshiriqlar tizimini ishlab chiqish va ular bilan ishlash texnikasini takomillashtirish.

**Tadqiqotning obyektini** EGRA va PIRLS xalqaro tadqiqotlari asosida umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirish metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Samarqand, Jizzax viloyatlari va Toshkent shahridagi umumiy o'rta ta'lim maktablarining 458 nafar boshlang'ich sinf o'quvchilari jalb etildi.

**Tadqiqotning predmetini** o'quvchilarning o'qish savodxonliklarini PIRLS, EGRA baholash dastur talablari asosida oshirish metodikasini takomillashtirishning mazmuni, shakl, vositalari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda adekvat holatda o'rganishni ta'minlashga qaratilgan nazariy (qiyosiy-taqqoslash, modellashtirish, tahliliy-sintetik), diagnostik (so'rovlar, test, kuzatish, suhbat), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik eksperiment va matematik (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash) usullar majmuidan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirishning nazariy aspektlari xalqaro baholash dasturlari konsepsiyalarida keltirilgan konseptual jarayonlar va shaxsga qo'yilgan talablarni milliy ta'lim tizimi me'yoriy talablari bilan integrallashuv darajasining real ta'limiy sharoitdagi barqarorligini o'qitishning reproduktiv usullariga muvofiq ta'minlash asosida aniqlashtirilgan;

o'quvchilarning matn tahlili asosida o'qish savodxonligini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari o'quvchilarning ijtimoiylashuv vektorini ularning individual ta'lim trayektoriyasiga rivojlantirish tamoyiliga muvofiq uyg'unlashtirish va matn bilan ishlashda tushunish, qo'llash, mulohaza qilish va xulosalash ko'nikmalarini boshlang'ich ta'limning metodologik va didaktik talablariga muvofiq refleksiv va tezkor ravishda shakllantirish asosida takomillashtirilgan;

xalqaro baholash dasturlari asosida o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirish metodikasini takomillashtirishning universal modeli o'qish savodxonligi determenantlarini o'quvchilarning matnni tushinish va tahlil qilish bilan bog'liq ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan ta'limiy komponentlarni algoritmik izchillikda tashkiliy-didaktik jihatdan o'zaro singdirish asosida takomillashtirilgan;

xalqaro baholash tadqiqotlari talablariga muvofiq topshiriqlar tizimini ishlab chiqish texnikasi pedagogikaning zamonaviy paradigmalarini xalqaro baholash dasturlari talablariga metodik jihatdan implemintatsiya qilish va o'quvchilarning kommunikativ va metakognitiv kompetensiyalarini adabiy ta'lim tamoyillariga muvofiq shakllantirish asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

o'quvchilarning o'qish savodxonliklarini PIRLS baholash dasturi talablari (o'qish va tushunish darajasi, mantiqiy va kreativ fikrlashi) asosida shakllantirish samaradorligini aniqlash mezonlari va ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan;

ta'lim sifatini baholovchi xalqaro tadqiqot talablari asosida boshlang'ich sinflarda o'qish darsi mashg'ulotlarini tashkil etishning dasturiy ta'minoti va metodik tavsiyalar majmuasi ishlab chiqilgan;

boshlang'ich sinf o'quvchilarning o'qish savodxonliklarini PIRLS, EGRA baholash dasturi talablari asosida shakllantirishga qaratilgan amaliy mashg'ulot ishlanmalari yaratilgan;

o'qituvchilar uchun "O'qish savodxonligi" to'garagining dasturi, rejasi va mashg'ulot ishlanmalari yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** bilish nazariyasi metodologiyasi (bilishning dialektik metodi, o'quv fanlari, jamiyat va tabiat hodisalarini tahlil qilishga tizimli yondashuv) hamda pedagogik ta'lim sohasidagi respublikamiz va



xorijiy davlatlar olimlarining ishlariga asoslanganligi, tahlil va tadqiqot tavsifining miqdor hamda sifat jihatidan ta'minlanganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi tadqiqot metodlarining qo'llanilganligi, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif etilgan model, texnologiyalar, tamoyillar, o'quvchilarda o'qish savodxonliklarini PIRLS, EGRA baholash dasturi talablari asosida shakllanganlik darajasini aniqlovchi mezonlar va ko'rsatkichlardan, zamonaviy pedagogik yondashuvlarlar asosida ishlab chiqilgan adabiy mashg'ulotlarni tashkil etishning dasturiy ta'minoti va metodik tavsiyalar, matn bilan ishlash bo'yicha ishlab chiqilgan nazariy xulosalardan boshlang'ich ta'lim nazariyasini, fanlarining o'quv reja va dasturlarini, topshiriqlar tizimini takomillashtirishda foydalanilish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati** boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirish bo'yicha o'quv dasturlari, qo'llanma va darsliklarni ta'lim oluvchilarning o'qish savodxonliklarini PIRLS, EGRA baholash dasturi talablari asosida takomillashtirish, yaratilgan dasturiy ta'minot va metodik tavsiyalar tizimi, interfaol amaliy mashg'ulot ishlanmalari, xalqaro baholash dasturi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonliklarini shakllantirish texnologiyasidan foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** "Umumta'lim maktablarida xalqaro dasturlar asosida o'qish savodxonligini oshirish metodikasini takomillashtirish (PIRLS, EGRA xalqaro dasturlari asosida)" mavzusida olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

xalqaro baholash dasturlari konsepsiyalarida keltirilgan konseptual jarayonlar va shaxsga qo'yilgan talablarni milliy ta'lim tizimi me'yoriy talablari bilan integrallashuv darajasining real ta'limiy sharoitdagi barqarorligini o'qitishning reproduktiv usullariga muvofiq ta'minlash asosida aniqlashtirilgan o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirishning nazariy aspektlari, o'quvchilarning o'qish savodxonliklarini PIRLS baholash dasturi talablari (o'qish va tushunish darajasi, mantiqiy va kreativ fikrlashi) asosida shakllantirish samaradorligini aniqlash mezonlari va ko'rsatkichlari bo'yicha taklif va tavsiyalar "Tabiiy fanlar nazariyasi va metodikasi" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yi 25 iyundagi 218-sonli buyrug'i asosida berilgan №218-572-sonli mashr ruxsatnomasi) Natijada, o'quvchilarning PIRLS, EGRA xalqaro baholash dasturlari talablariga muvofiq o'qish savodxonligini oshirish metodikasining nazariy asoslari takomillashtirilgan;

o'quvchilarning ijtimoiylashuv vektorini ularning individual ta'lim trayektoriyasiga rivojlantirish tamoyiliga muvofiq uyg'unlashtirish va matn bilan ishlashda tushunish, qo'llash, mulohaza qilish va xulosalash ko'nikmalarini boshlang'ich ta'limning metodologik va didaktik talablariga muvofiq reflektiv va

tezkor ravishda shakllantirish asosida takomillashtirilgan o'quvchilarning matn tahlili asosida o'qish savodxonligini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari, ta'lim sifatini baholovchi xalqaro tadqiqot talablari asosida boshlang'ich sinflarda o'qish darsi mashg'ulotlarini tashkil etishning dasturiy ta'minoti va metodik tavsiyalar majmuasi bo'yicha nazariy xulosa va takliflar dan T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialining AI-XT-0-92997 raqamli "Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg'unligi asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari" nomli amaliy loyihasini bajarishda foydalanilgan (T. Q. Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialining 2023 yil 15 noyabrdagi 564-son ma'lumotnomasi) Natijada, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qish darslarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish metodikasi takomillashtirilgan;

o'qish savodxonligi determinantlarini o'quvchilarning matn tushinish va tahlil qilish bilan bog'liq ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan ta'limiy komponentlarni algoritmik izchillikda tashkiliy-didaktik jihatdan o'zaro singdirish asosida takomillashtirilgan xalqaro baholash dasturlari asosida o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirish metodikasini takomillashtirishning universal modeli, pedagogikaning zamonaviy paradigmalari xalqaro baholash dasturlari talablariga metodik jihatdan implemintsatsiya qilish va o'quvchilarning kommunikativ va metakognitiv kompetensiyalarini adabiy ta'lim tamoyillariga muvofiq shakllantirish asosida takomillashtirilgan xalqaro baholash tadqiqotlari talablariga muvofiq topshiriqlar tizimini ishlab chiqish texnikasi borasidagi taklif va tavsiyalardan Toshkent telekanalining "Toshkent 24" va "Reportaj" informatsion dasturlarini tayyorlashda foydalanilgan ("O'zbekiston" teleradiokanali DUKning 2021-yil 11-avgustdagi 02-40-1020-son ma'lumotnomasi). Natijada, umumta'lim maktablarida boshlang'ich sinf o'quvchilarning o'qish savodxonliklarini PIRLS, EGRA baholash dasturi talablari asosida shakllantirishga qaratilgan amaliy mashg'ulot ishlanmalarining ommalashishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobsatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 18 ta ilmiy ish, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 148 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekti,

predmeti va tadqiqot usullari aniqlangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalarining ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e‘lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasidagi ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini oshirishning nazariy-metodologik asoslari” deb nomlangan birinchi bobida umumiy o‘rta ta‘lim tizimida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta‘limga adaptatsiya qilishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, xalqaro dasturlari asosida o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini oshirishning tadqiqotlarda o‘rganilishi, tashkiliy-pedagogik xususiyatlari tashkil etish muammolari tadqiq etilgan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta‘limga olib kirish, deppinishlar va ruhiy zo‘riqishlarsiz ularda ta‘lim olish ko‘nikmalarini shakllantirish eng muhim pedagogik-psixologik muammolardan hisoblanadi. Odatda 6 yoshdan 12 yoshgacha bo‘lgan boshlang‘ich maktab o‘quvchilari muhim kognitiv, hissiy va ijtimoiy rivojlanishni boshdan kechiradilar, bu ularning ta‘limga ruhan va jismonan kirib kelishiga asos soladi. Ta‘lim strategiyalari bilan bog‘liq holda ularning yoshi va fiziologik imkoniyatlarini tushunishning ahamiyatini oshirib bo‘lmaydi. Ushbu rivojlanish bosqichlariga mos keladigan ta‘lim yondashuvlari yosh o‘quvchilarda muvaffaqiyatli o‘qish savodxonligini rivojlantirish uchun juda muhimdir<sup>2</sup>.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kuzatiladigan kognitiv, hissiy va ijtimoiy rivojlanish maromini to‘g‘ri belgilash ularning yosh va fiziologik xususiyatlari bilan bevosita bog‘liq va bu jarayon pedagogik shart-sharoit hamda to‘g‘ri tanlangan metodikaga, shuningdek, psixologik omillarga bevosita bog‘liq. Modomiki, shunday ekan, ta‘lim va uning mohiyatini anglash ostonasida turgan o‘quvchilarning rivojlanish yo‘nalishlari va ularning o‘ziga xos jihatlarini aniqlashtirish tadqiqot mohiyatini ochishga yordam beradi. Quyida ularni ko‘rib chiqamiz.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining rasmiy ta‘limga moslashishida pedagogik va psixologik jihatlar hal qiluvchi rol o‘ynaydi, o‘qish savodxonligining samarali bo‘lishiga ta‘sir qiluvchi omillar:

- Kognitiv rivojlanish;
- Hissiy rivojlanish;
- Ijtimoiy rivojlanish;
- Sinfni boshqarish texnikasi;
- O‘qitish metodlari;
- Samarali moslashishni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan yondashuvlar;
- O‘qish savodxonligini oshirish bilan bog‘liqlik;
- Motivatsiya;
- O‘z-o‘zini hurmat qilish;
- Ijtimoiy-emotsional rivojlanish.

---

<sup>2</sup> Smith, E. L., & Johnson, S. L. (2018). Teaching children to read: The teacher makes the difference. Routledge; Brown, P., Green, T. D., & Sawyer, W. W. (Eds.). (2020). The Cambridge handbook of the psychology of pre-school education. Cambridge University Press.

## O'quvchilarini ta'limga adaptatsiya qilishning pedagogik-psixologik yondashuvlar

### Kognitiv rivojlanish

Mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish bilan tavsiflangan aniq operatsion bosqichda bo'lishadi. Ular mavhum tushunchalarni tushuna boshlaydilar va o'qishni tushunish uchun asosiy ko'nikma bo'lgan oddiy xulosa chiqarish bilan shug'ullanadilar. Yuqori boshlang'ich darajalarga o'tishlari bilan ularning kognitiv qobiliyatlari yetuk bo'lib, matnlarni tahlil qilish, ma'nolarni chiqarish va g'oyalarni o'rtasida aloqa o'rnatish imkonini beradi

### Hissiy rivojlanish

O'quvchilarni ko'pincha qiziquvchanligi, ishtiyoqi va yangi mavzularni o'rganishga intilishi bilan ajralib turadi. Ular bu davrda o'qish savodxonligini oshirish uchun kuchli motivator bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan ijobiy mustahkamlash va tengdoshlarning tan olinishiga sezgir hisoblanadilar

### Ijtimoiy rivojlanish

O'quvchilarni ijtimoiy rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim strategiyalari birgalikda o'qish amaliyotlarini rag'batlantirishga mo'ljallanishi maqsadga muvofiq. Guruh o'qish faoliyati, kitobxonlik klublari va tengdoshlar tomonidan olib boriladigan munozaralar ijtimoiy o'zaro ta'sirga yordam beradi va umumiy tushunchalar va turli talqinlar orqali o'qishni tushunishni kuchaytiradi

## 1-rasm. O'quvchilarining rasmiy ta'limga moslashishida pedagogik va psixologik jihatlar

Pedagogik va psixologik omillarning uyg'unligi ushbu tadqiqotning keyingi bo'limlari uchun mustahkam poydevor yaratadi, bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida o'qish savodxonligini oshirishga qaratilgan. Pedagogik va psixologik jihatlar o'rtasidagi kesishmalarni tushunib, o'qituvchilar uzluksiz moslashish jarayonini osonlashtiradigan strategiyalarni ishlab chiqishlari mumkin. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning o'qish materiallariga qiziqishini oshiradi va keyinchalik o'qish savodxonligini oshirishga zamin yaratadi. O'qish savodxonligini oshirishning nozik jihatlarini chuqurroq o'rganar ekanmiz, ushbu tadqiqotdan olingan tushunchalar boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'ziga xos ehtiyojlarini qondiradigan samarali tadbirlarni yaratish uchun asosiy tamoyil bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqotda boshlang'ich sinflarda o'qishni baholash (EGRA) va Xalqaro o'qish savodxonligini o'rganish (PIRLS) kabi xalqaro dasturlar tomonidan taqdim etilgan tushunchalarga asoslangan holda boshlang'ich ta'limda o'qish savodxonligini oshirishga hissa qo'shadigan pedagogik, psixologik va tashkiliy jihatlar o'rganildi.

“O'qish savodxonligi” tushunchasi boshlang'ich sinfda o'qishni baholash (EGRA) va Xalqaro o'qish savodxonligini o'rganish (PIRLS) kabi ta'limni baholash tizimida asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu dasturlar o'qish savodxonligining keng qamrovli ta'riflarini beradi, o'quvchilarning o'qish qobiliyatini baholash uchun muhim bo'lgan turli o'lchov va ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Ushbu bo'limda biz EGRA va PIRLS xalqaro dasturlarida ko'rsatilgan o'qish savodxonligi tushunchasining mazmunini o'rganamiz, o'quvchilarning o'qish qobiliyatini o'lchash uchun foydalaniladigan asosiy komponentlar va ko'rsatkichlarni ajratib ko'rsatamiz.



**2-rasm. Xalqaro baholash dasturlarida “o‘qish savodxonligi” tushunchasining tarkibiy qismlari**

Xalqaro baholash dasturlarida “o‘qish savodxonligi” tushunchasining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

**1. Dekodlash va so‘zni aniqlash.** O‘qish savodxonligining asosiy komponentlaridan biri so‘zlarni to‘g‘ri dekodlash va tanib olish qobiliyatidir. Bu harf-tovush munosabatlarini tushunish, ko‘rish so‘zlarini aniqlash va notanish so‘zlarni ochish uchun fonika tamoyillarini qo‘llashni o‘z ichiga oladi. EGRA va PIRLS baholashlari ko‘pincha o‘quvchilarning so‘zni tanib olish va dekodlash bo‘yicha malakasini baholovchi vazifalarni o‘z ichiga oladi.

**2. Lug‘at bilimi.** Yozma matnni tushunish uchun boy lug‘at zarur. EGRA va PIRLS dasturlari o‘qish savodxonligining asosiy elementi sifatida so‘z boyligini o‘zlashtirishga urg‘u beradi. Kuchli lug‘at o‘quvchilarning til va kontekstual ma‘nolarning nozik tomonlarini tushunishlariga yordam berish orqali tushunishni kuchaytiradi.

**3. Tushunish.** O‘qish savodxonligining markaziy o‘rni matnni tushunish va tushunish qobiliyatidir. Bu asosiy g‘oyalarni tushunish, qo‘llab-quvvatlovchi tafsilotlarni aniqlash, xulosalar chiqarish va matnning turli qismlari o‘rtasida aloqa o‘rnatishni o‘z ichiga oladi. EGRA va PIRLS baholash dasturlari savollarga javob berish va materialni tushunishni namoyish etishni talab qiluvchi topshiriqlar orqali o‘quvchilarning tushunish darajasini o‘lchaydi.

**4. Ravonlik.** Ravon o‘qish ham aniqlik, ham tezlikni o‘z ichiga oladi. Ravon o‘qiydiganlar matnni muammosiz va tegishli prosodiya (nutqda urg‘uli va urg‘usiz, uzun va qisqa bo‘g‘inlarni talaffuz qilish sistemasi) bilan o‘qiy oladilar, bu esa tushunishni kuchaytiradi. EGRA va PIRLS dasturlari ravonlikni o‘qish savodxonligining muhim jihati sifatida tan oladi va o‘qish tezligi va ifodasini baholovchi vazifalarni o‘z ichiga olishi mumkin.

**5. O‘qish strategiyalari.** Malakasi shakllangan o‘quvchilar matni tushunishlarini kuchaytirish uchun turli strategiyalardan foydalanadilar. Ushbu strategiyalar o‘qish paytida taxmin qilish, umumlashtirish, tasavvur qilish va savollar berishni o‘z ichiga oladi. EGRA va PIRLS baholashlari o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi darajasini aniqlash uchun ushbu strategiyalarni qo‘llashini baholashi mumkin.

EGRA va PIRLS dasturlari o‘quvchilarning o‘qish ko‘nikmasini baholash uchun bir qator ko‘rsatkichlardan foydalanadi. Ushbu ko‘rsatkichlar o‘quvchilarning o‘qish savodxonligining yuqorida aytib o‘tilgan komponentlari bo‘yicha malakasi haqida tushuncha beradi. Ular quyidagilar:

**1. Og‘zaki o‘qishning ravonligi.** O‘qish tezligi, aniqligi va ifodasi kabi ko‘rsatkichlar o‘quvchilarning ravonligi va matni silliq o‘qish qobiliyati haqida tushuncha beradi.

**2. Tushunish uchun savollar.** O‘quvchilardan matn asosida savollarga javob berishni talab qiladigan topshiriqlar ularning tushunish ko‘nikmalarini, jumladan, asosiy g‘oyalar, tafsilotlar va xulosa ma‘lumotlarni aniqlash qobiliyatini baholaydi.

**3. Lug‘atni baholash.** Lug‘at bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar o‘quvchilarning so‘zlarni kontekstda aniqlash yoki notanish so‘zlarning ma‘nolarini tushunish qobiliyatini baholovchi vazifalarni o‘z ichiga olishi mumkin.

**4. Fonemik xabardorlik.** Ba‘zi baholashlar o‘quvchilarning fonemik elementlardan xabardorligini tovushlarni segmentlash va aralashtirish kabi vazifalar orqali baholaydi.

**5. Matni tahlil qilish.** Murakkabroq baholash o‘quvchilardan matn tuzilishi va tashkil etilishini tahlil qilishni, uning maqsadi, ohangini va asosiy adabiy elementlarini aniqlashni talab qilishi mumkin.

EGRA va PIRLS dasturlarida ko‘rsatilgan o‘qish savodxonligini har tomonlama tushunish bu mahoratning ko‘p qirraliligini ta‘kidlaydi. Turli komponentlar va ko‘rsatkichlarni baholash orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarning o‘qish qobiliyatlari haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘ladilar. So‘z boyligi, tushunish, ravonlik va strategiyalarni yaxshilashning kuchli tomonlari va sohalarini aniqlash o‘quvchilarning umumiy o‘qish savodxonligini oshirish uchun maqsadli tadbirlarni amalga oshirish imkonini beradi.

EGRA va PIRLS xalqaro dasturlarida “O‘qish savodxonligi” tushunchasi mazmuni o‘qish mexanikasi doirasidan chiqib, bir qator komponent va ko‘rsatkichlarni qamrab oladi. Ushbu baholashlar o‘qish savodxonligining muhim o‘lchovlari sifatida dekodlash, so‘z boyligi, tushunish, ravonlik va strategiyalarni ta‘kidlaydi. Ushbu komponentlarning tizimli o‘lchovi o‘qituvchilarga o‘quvchilarning o‘qish qobiliyatlari haqida qimmatli ma‘lumotlarga ega bo‘lish va o‘qish savodxonligini mazmunli oshirishga yordam beradigan o‘qitish usullarini moslashtirish imkonini beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida o‘qish savodxonligini oshirish bo‘yicha global sa’y-harakatlar EGRA va PIRLS kabi baholash dasturlarini amalga oshirishga olib keldi. Ushbu dasturlar turli mintaqalarda, jumladan, Yevropa, Osiyo va O‘zbekistonda o‘qib tushunish ko‘nikmalarini baholash va maqsadli

tadbirlarni amalga oshirish uchun keng miqyosda qabul qilingan. Quyida boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida o'qish savodxonligini oshirishda EGRA va PIRLS dasturlarining samaradorligini baholash uchun ushbu mintaqalar bo'ylab o'tkazilgan pedagogik-psixologik tadqiqotlar tanlovini ko'rib chiqamiz.

**Yevropa tadqiqotlari.** Yevropada olib borilgan tadqiqotlar EGRA va PIRLS dasturlarining o'qish savodxonligini oshirishga ta'sirini o'rganishga yo'naltirilgan. Finlandiya va Shvetsiya kabi o'qish malakasi yuqori baholanadigan mamlakatlarda pedagogik amaliyotni oshirish maqsadida ushbu dasturlar o'quv dasturiga kiritilgan. Sulkunen va boshqalar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda<sup>3</sup> Finlyandiyada EGRA baholashlari o'quvchilarning individual o'qish ehtiyojlari haqida qimmatli tushunchalar berishini aniqladi, bu esa o'qituvchilarga ta'lim va tadbirlarni mos ravishda moslashtirish imkonini beradi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, asosiy o'qish qobiliyatlari va tushunish strategiyalariga aniq e'tibor berish o'quvchilarning o'qish qobiliyatining sezilarli yaxshilanishiga olib keldi.

Xuddi shunday, Andersson va Thunberg<sup>4</sup> tomonidan Shvetsiyada o'tkazilgan tadqiqot PIRLSga asoslangan aralashuvlarni amalga oshirishni o'rganib chiqdi. Tadqiqotchilarning aniqlashicha, tuzilgan baholash va undan keyingi maqsadli ko'rsatma o'quvchilarning so'z boyligini o'zlashtirish va tushunish ko'nikmalarini yaxshilagan. Ushbu topilmalar o'qish savodxonligini rivojlantirish uchun PIRLS kabi xalqaro miqyosda tan olingan dasturlarni mahalliy kontekstlarga integrasiya qilish samaradorligini ta'kidlaydi.

**Osiyo tadqiqotlari.** Osiyo mamlakatlarida EGRA va PIRLS dasturlarini amalga oshirish ham o'qish savodxonligini oshirishda istiqbolli natijalarni ko'rsatdi. Singapur va Yaponiya kabi ta'limga kuchli e'tibor qaratgani bilan mashhur mamlakatlarda bu dasturlar dalillarga asoslangan pedagogik yondashuvlarga hissa qo'shgan. Singapurda Tan va Choo (2015)<sup>5</sup> tomonidan olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, EGRA baholashlari o'quvchilarni o'qish savodxonligini boshida aniqlashga yordam beradi. Tadqiqotchilarning ma'lum qilishicha, individual ehtiyojlarga asoslangan keyingi aralashuvlar o'quvchilarning fonematik xabardorligini va dekodlash ko'nikmalarini yaxshilagan.

Yaponiyaning PIRLS ma'lumotlaridan o'quv amaliyotlarini xabardor qilish uchun foydalanish Takayama va Sasaki<sup>6</sup> tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda o'rganilgan. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, PIRLS baholashdan olingan tushunchalar o'qituvchilarga o'quvchilarning rivojlanish bosqichlariga mos keladigan o'qish materiallari va strategiyalarini tanlashda yordam bergan. Ushbu strategiyalarning amalga oshirilishi o'quvchilarning o'qishni tushunish va o'qishga qiziqishini oshirishga olib keldi.

---

<sup>3</sup> Sulkunen, S., Vehkalahti, K., Heikkinen, H. L. T., & Ruponen, T. (2019). Early grade reading assessment and educational quality: A small country perspective. *Policy Futures in Education*, 17(7), 938-951.

<sup>4</sup> Andersson, A., & Thunberg, C. M. (2017). PIRLS in Sweden: The role of the national report and follow-up projects in primary school teachers' professional development. *The Curriculum Journal*, 28(2), 239-257.

<sup>5</sup> Tan, A. S., & Choo, M. (2015). Implementing Early Grade Reading Assessment (EGRA) in Singapore. *Journal of Research in Reading*, 38(3), 264-280.

<sup>6</sup> Takayama, K., & Sasaki, M. (2018). Using PIRLS data for professional development: A case study of an elementary school in Japan. In S. Mullis, & M. O. Martin (Eds.), *Methods and Procedures in PIRLS and PISA* (pp. 209-232). Springer.

**O‘zbekistondagi tadqiqotlar.** Ta’lim tizimini takomillashtirish bo‘yicha faol ish olib borayotgan O‘zbekistonda EGRA va PIRLS dasturlarining integrasiyalashuvi o‘qish savodxonligini oshirishda ijobiy natijalar berdi. M.Ismoilova va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotda<sup>7</sup> O‘zbekistonda EGRA asosidagi aralashuvlarning o‘quvchilarning o‘qish qobiliyatiga ta’sirini baholadi. Tadqiqotchilar o‘quvchilarning fonematik tushunchasi, so‘z boyligi va o‘qishni tushunish ko‘nikmalarida sezilarli yaxshilanishlar qayd etilgan. Bundan tashqari, tadqiqot o‘quv amaliyotlarini EGRAning asosiy o‘qish ko‘nikmalariga urg‘u berish bilan uyg‘unlashtirish muhimligini ta’kidladi.

S.Abdullaeva va M.Shukurova<sup>8</sup> tomonidan olib borilgan yana bir tadqiqot O‘zbekistonda PIRLS asosidagi strategiyalarni amalga oshirishga qaratilgan. Tadqiqotchilar PIRLS ma’lumotlari asosidagi maqsadli aralashuvlar o‘quvchilarning murakkab matnlarni tushunish va tahlil qilish qobiliyatini yaxshilashini aniqladi. Ushbu tadqiqot mahalliy o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va o‘qitish amaliyotini boshqarishda xalqaro baholashning foydaliligini ta’kidladi.

Turli mintaqalarda o‘qish savodxonligini oshirishda EGRA va PIRLS dasturlarining samaradorligi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida bir nechta umumiy jihatlar paydo bo‘ladi. Birinchidan, baholashlar o‘qituvchilarga individual o‘quvchilarning kuchli tomonlarini va iqtidorlarini yo‘naltirish yo‘nalishlarini aniqlash imkonini beruvchi qimmatli ma’lumotlarni taqdim etadi. Ushbu ma’lumotlarga asoslangan yondashuv o‘qish qobiliyatining aniq kamchiliklarini bartaraf etadigan maqsadli tadbirlarni amalga oshirishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, turli mintaqalarda olib borilgan tadqiqot natijalari EGRA va PIRLS dasturlarining o‘qish savodxonligini oshirishga universal ta’sirini ta’kidlaydi. O‘qish ko‘nikmalarini qanday qilib samarali oshirishni tushunishda oldinga siljiganimizda, ushbu tadqiqotlar dalillarga asoslangan aralashuvlarning ahamiyati va boshlang‘ich maktab o‘quvchilari o‘rtasida o‘qish savodxonligini oshirishda xalqaro baholash tizimlarining roli haqida dalolat beradi.

Yevropa, Osiyo va O‘zbekiston tadqiqotlari natijalarini o‘z ichiga olgan holda, EGRA va PIRLS dasturlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini oshirishga katta hissa qo‘shishi aniq. Ushbu tadqiqotlar ma’lumotlarga asoslangan aralashuvlar, maqsadli ko‘rsatmalar va baholashlarda ta’kidlanganidek, o‘qish savodxonligining asosiy komponentlari bilan moslashuvning ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“EGRA, PIRLS xalqaro dasturlari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini oshirishning amaliy mexanizmlari”** deb nomlanadi. Mazkur bobda o‘quvchilar EGRA tadqiqotlarida o‘quvchilarning matn tahlili asosida o‘qish savodxonligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari, PIRLS xalqaro baholash dasturi asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matni o‘qish va tushinish darajasini rivojlantirish

---

<sup>7</sup> Ismoilova, M., Habibullaeva, D., & Kuldashaeva, S. (2020). Impact of Early Grade Reading Assessment on students' reading skills in Uzbekistan. *Journal of Education and Practice*, 11(18), 65-74.

<sup>8</sup> Abdullaeva, S., & Shukurova, M. (2018). Reading strategies: A case study of PIRLS data in Uzbekistan. *Educational Studies*, 13(3), 29-42.



mexanizmlari, topshiriqlar tayyorlash va ular ustida ishlash texnikasi ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari tadqiq etilgan.

O'qish savodxonligi boshlang'ich ta'lim davridanoq shakllanadigan ko'nikmalar bo'lib, zamonaviy shaxsni tarbiyalashdagi bosh mezonlardan biri hisoblanadi. O'qish savodxonligi o'quvchi tomonidan navbatdagi bilimlarni o'zlashtirish imkonini beradi. O'qish savodxonligining darajasi oddiy matndan nostandart materialni o'qish va tushunish darajasi bilan o'lchanadi. Boshlang'ich ta'limda o'qish savodxonligining dastlabki belgilari bo'lgan o'qish, yozish ko'nikmalari shakllantiriladi. Zamonaviy o'qish savodxonligi o'quvchidan fikrlash operatsiyalarini mustaqil tarzda amalga oshirishni talab etadi. Fikrlash operatsiyalari, ya'ni o'qish, tahlil qilish, tushunish, solishtirish, umumlashtirish, xulosalash asosida o'quvchida zamonaviy ko'nikmalarni shakllantiradi. Zamonaviy ko'nikmalar xalqaro tendensiyalarda "4K" deb nomlanmoqda. "4K" - **kreativ, kretik, kommunikativ va kollegial** ko'nikmalarning bosh harflari yig'indisidan hosil bo'lgan tushuncha.

Boshlang'ich sinf o'qishini baholash (EGRA) - bu o'quvchilarning o'qishdan oldingi va o'qish kichik topshiriqlaridagi mahoratini o'lchashni nazarda tutuvchi test. Odatda, EGRA bolalar bog'chasi o'quvchilariga boshlang'ich maktab orqali beriladi. EGRA bolalarning ravon o'qishi uchun harf nomlari va harf tovushlari kabi o'rganishi kerak bo'lgan turli kichik vazifalar bo'yicha mahoratini sinab ko'radi. Sinov, odatda, o'qituvchi tomonidan o'quvchi bilan yakkama-yakka, baland ovozda o'tkaziladi.

#### **Xalqaro baholash tadqiqotlari O'zbekiston ta'lim tizimidagi ahamiyati**

- milliy ta'lim tizimin isloh qilish, ta'lim mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishda qo'llaniladi;

- tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi ta'lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o'rni to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradi;

- xalqaro tadqiqotlar ta'lim sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatli o'tkazishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

- xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi;

- O'zbekistonda turli tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish orqali mahalliy mutaxassislarimizda monitoring tadqiqotlarini o'tkazish madaniyati rivojlanadi, ta'lim sifati baholashning xalqaro standartlarga moslashuviga olib keladi;

- milliy ta'lim sifati baholashdagi nazorat materiallarini xalqaro tadqiqotlarda qo'llaniladigan nazorat materiallari sifati darajasida ishlab chiqish imkonini beradi.

#### **Ta'lim tizimida EGRA tadqiqotidan foydalanishning ahamiyati**

Odatda, o'qish testlari qog'ozda amalga oshiriladi, ya'ni o'quvchilar ularni qabul qilish uchun kamida bir oz o'qish va yozish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak. Bu bolalarning o'qishni o'rganish jarayonining dastlabki

bosqichida, ular ushbu asosiy ko'nikmalarni egallashdan oldin o'lchashni qiyinlashtiradi. Albatta, EGRA har bir o'quvchining o'qish kichik topshiriqlari bo'yicha malakasini aniqlashi mumkin, lekin ko'plab o'quvchilar birgalikda sinovdan o'tkazilsa, EGRA natijalari o'qish dasturining ta'sirini baholash yoki hatto mamlakatning sifatli asosiy ta'lim olish yo'lidagi muvaffaqiyatini o'lchash uchun ishlatilishi mumkin.

EGRA uchun individual o'quvchilar turli o'qish mahorati kichik vazifalari bo'yicha baholanadi. EGRA xalqaro tadqiqotidan turli tillarda foydalanish mumkin. EGRA moslashuvchan bo'lishi uchun yaratilgan; u turli kontekstlarda ishlatilishi mumkin. EGRA har doim mahalliy til va kontekstga moslashtirilishi kerak. O'qishni o'rganish har qanday tilda o'xshash asosiy ko'nikmalarni talab qiladi, ammo bu turli ko'nikmalarning ahamiyati tilga bog'liq. EGRAning USAID tomonidan moliyalashtiriladigan barcha ma'muriyatlarida qo'llanilishi kerak va EGRAning boshqa ma'muriyatlarida ham qo'llanilishi mumkin. va ular ovoz chiqarib, o'qituvchi gapirganda, o'quvchi esa o'qib javob beradi.

Eng keng tarqalgan EGRA pastki vazifalari quyida tavsiflanadi. Kichik topshiriqlar eng asosiy ko'nikmalarni o'lchaydigan eng oddiy vazifalardan boshlanadi va u erta o'qishni tushunishni o'lchaydigan kichik vazifaga o'tadi. Bu topshiriqlar, testlar asosida o'quvchilarning quyidagi jihatlari ochib beriladi:

- og'zaki o'qishning ravonligi;
- o'qishni tushunish;
- tanish so'zlarni tushunish;
- tanish so'zlarni ovozsiz o'qish;
- harf tovushlari va harf nomlari;
- so'zlarni tanib olish;
- lug'at ustida ishlash;
- tinglab tushunish;
- fikrlarni yo'naltirish;
- fikrlarni bayon etish tushunchalari shakllanishi;
- tilni tushunish kabi bilimlarimizni boyitib boradi.

Bugungi kunda sifatli talim tizimiga, tarbiyalanuvchilarga berilgan e'tibor, kelgusida madaniyat, ta'lim, iqtisod va ishtimoiy tizimning butunlay o'zgarishiga olib keladi. O'qish-fikrlash demakdir. Shunday ekan, xalqaro tadqiqotlar asosida savodxonlikni oshirishimizning natijasi kelgusida yuqoridagi tizimlarda o'z aksini topadi.

O'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirishni PIRLS baholash dasturi talablari asosida tashkil etish muhim jarayondir. O'qish savodxonligini oshirish jarayonini faollashtirish, o'quvchilarda mustaqil ta'lim olishga bo'lgan intilish, mavzuga oid ma'lumotlarni mustaqil tarzda o'qib o'rganish, savodxonlik darajasi, ko'nikma va malakalarini shakllantirish ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlash

me'zoni bo'lib, u o'quvchilarda quyidagi xususiyatlarning shakllanishiga asos bo'ladi:<sup>9</sup>

- o'quvchilarda o'qish va yozuv savodxonlik darajasini namoyon qilish;
- bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish;
- ularning o'qitiladigan fanlarga oid bilimlarini rejalashtirish;
- sinfda va sinfdan tashqarida olingan bilimlarni tartibga solish,
- qilish uchun ongli ravishda foydalana bilish;
- ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

